

Buxoro viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra viloyatda 3 138 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 687 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,9 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 510 tasi (16,3 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 299 tasi (9,5 %) to'qimachilik ishlab chiqarishga, 296 tasi (9,4 %) kiyim ishlab chiqarishga va 252 tasi (8,0 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1- oktabr holatiga ko'ra



II. Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 35 863,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,3 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Buxoro viloyati	35 863,6	107,3

tumanlar:

Olot tumani	780,2	103,9
Buxoro tumani	959,0	105,8
Vobkent tumani	949,8	101,4
G'ijduvon tumani	2 377,4	107,3
Kogon tumani	1 669,4	102,1
Qorako'l tumani	917,0	106,2
Qorovulbozor tumani	14 845,2	115,9
Peshku tumani	883,4	117,8
Romitan tumani	1 407,8	105,8
Jondor tumani	1 044,9	101,4
Shofirkon tumani	785,4	104,7
Buxoro sh.	3 552,5	102,1
Kogon sh.	1 036,7	109,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumanida (725 113,0 ming so'm), Kogon tumanida (19 206,3 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (17 175,7 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, Qorovulbozor tumanida (113,7 %), Kogon shahrida (100,1 %), qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-sentabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 32 862,3 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (91,6 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 208,6 mlrd so'm (0,6%), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 2 495,2 mlrd so'm (7,0 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 297,5 mlrd so'm (0,8 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar- sentabr oylarida





III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 1 669,5 ming l 100% li aroq (2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 45,7 % ga kamaygan), 773,5 ming tonna avtomobil benzini (0,6 % ga ko'paygan), 25 749,0 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (8,8 % ga ko'paygan) hamda 9 757,9 ming kv.m ip gazlamalari (31,7 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr*	2024-yil yanvar-sentabr*	2025-yil yanvar- sentabr
Aroq-ming l 100% li spirt	3 415,5	3 072,5	1 669,5
Avtomobil benzini, ming t	762,4	768,7	773,5
Xom yoki tozalanmagan oltingugurt, t	664,0	867,4	1 270,6
Dizel yoqilg'isi, ming t	143,5	190,2	304,7
Mazut, ming t	43,4	60,8	48,7
O'simlik yog'i (tozalangan), t	6 866,6	7 043,1	6 134,0
Paxta tolasi, t	49 764,0	40 942,0	45 717,0
Paxta chigiti, t	78 675,0	67 302,0	69 427,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	14 190,2	23 659,1	25 749,0
Ip gazlamalari, ming kv.m	7 456,4	14 282,9	9 757,9

**2023-2024-yillarning yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Jami sanoat tarkibidagi koks va neft mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 39,9 % (2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,2 % (2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,7 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2024-yilning yanvar- sentabr oylarida 0,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,2% (2,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 52,4 % (51,2 %), quyi texnologiyali 45,3 % (46,0 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi (yirik korxonalar bo'yicha)

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 85,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 76,2 % ni tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr*	2024-yil yanvar-sentabr *	2025-yil yanvar-sentabr
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	1 493,8	1 281,3	1 095,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	486,2	480,6	365,4

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish hajmi**


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlarini taqsimlash bo'yicha xizmatlar 13,1 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 3,0 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 1,7 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr *	2024-yil yanvar-sentabr *	2025-yil yanvar-sentabr
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	14 587,3	24 085,1	24 797,1
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln so'm	308,3	305,5	310,6
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlar mln so'm	83 881,0	136 955,9	154 905,3

**2023-2024-yillarning yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 15 435,9 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 43,0 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 42,0 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Buxoro viloyat Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Dehqonov
65 223-80-82 (8010)

